



UDK:37.015.3

Gulayim KALIQNAZAROVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulayim-2025@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, DSc E.Nurimbetova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL CHALLENGES IN RAISING CHILDREN AND EDUCATING STUDENTS IN THE CONTEXT OF AN INFORMATION SOCIETY

Annotation

This article analyzes the psychological problems of raising children and schoolchildren in the context of the information society, the role of education and upbringing in our socio-cultural life, their significance in moral education, and their role in social and family relations.

Key words: Information, modern, social, culture, digital age, internet, social network, moral education, personality, youth, respect, friendship, love, companionship, shame, conscience, feelings of gratitude, spiritual heritage.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ И ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье анализируются психологические проблемы воспитания детей и школьников в условиях информационного общества, роль образования и воспитания в нашей социально-культурной жизни, их значение в нравственном воспитании и их роль в общественных и семейных отношениях.

Ключевые слова: Информационный, современный, социальный, культура, цифровая эпоха, интернет, социальная сеть, нравственное воспитание, личность, молодость, уважение, дружба, любовь, товарищество, стыд, совесть, чувства благодарности, духовное наследие.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA BOLALAR VA MAKTAB O'QUVCHILARINI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida bolalar va maktab o'quvchilarini tarbiyalashning psixologik muammolari, ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy madaniy hayotimizdagi o'rni, axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati, jamiyat va oilaviy munosabatlardagi o'rni haqida fikrlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan, zamonaviy, ijtimoiy, madaniyat, raqamli davr, internet, ijtimoiy tarmoq, axloqiy tarbiya, shaxs, yosh davrlar, hurmat, do'stlik, muhabbat, o'rtoqlik, uyat, vijdon, minnatdorlik tuyg'ular, ma'naviy meros.

Kirish. Hayotimizning o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy dunyosida zamonaviy bolalar va o'smirlarning rivojlanishi hamda ulg'ayishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi bois, tarbiya masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun albatta Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek «III Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak» [1]. Ayniqsa jamiyatda raqamli davr, ya'ni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi yuzaga kelayotgan muammolar faol muhokamalarga sabab bo'layotgani hech kimga ham sir emas. Tabiiyki bu xolat muhit ta'lim sohasini ham o'z ta'siriga oladi. Hozirning o'zida internet yosh avlod uchun asosiy axborot manbai, bilim olish vositasi va rivojlanish quroliga aylanib ulgurdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Olimlarining internet orqali uzatilayotgan ma'lumotlarning hajmi va uni olish tezligi tobora ortib borishi natijasida unii drok etish idrok etish va tushunish tezligi, ayniqsa bolalik va o'smirlilik davrida, axborotning mohiyatini chuqur anglab yetishga imkon bermaydi. Olingan ma'lumotlar ustida o'ylab ko'rish uchun yetarli vaqt topilmaydi, unda keltirilgan faktlar va voqealarni taqqoslash, ularga hissiy munosabat bildirish uchun har doim ham tajriba ustunlik etavermaydi. L.S. Vigotskiy ta'biri bilan aytganda, "faqat o'quvchining his-tuyg'ularidan o'tgan bilimgina unga singib ketishi mumkin, qolgan barcha narsa esa

o'lik bilim bo'lib, dunyoga bo'lgan har qanday jonli munosabatni yo'q qiladi" [2].

Raqamli ta'lim sharoitida axborotni mustaqil ravishda tahlil qilish va faoliyat, munosabatlar, xulq-atvor usullarini tanlash bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish ko'pincha qiyinlashadi. Shu bilan birga, muloqot tobora ko'proq virtual tusga kirmoqda. Bunday sharoitda bolalar va o'quvchilarning rivojlanish muammolari ta'lim tizimining psixologik xizmati oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalarni hal qilish, psixologik xizmat faoliyatini tarbiya psixologiyasi yo'nalishida aniqlashtirish, mazkur yo'nalishni ilmiy-amaliy jihatdan ta'minlash hamda tarbiya sohasidagi amaliy psixologiyaning mohiyatini anglaydigan mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik psixologiya fani bugungi kunda nihoyatda samarali va ta'sirchan fanga aylanib, tarbiyaning negizgi mohiyatini tushunish, uni turli yo'nalishlarda tavsiflash, uning qonuniyatlarini ifodalash kabi vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, ta'lim-tarbiyaning kelajak-avlod ongida qanday egallanishini tadqiq etilmoqda.

Zamonaviy yosh avlodni tarbiyalashda murakkab muammolarini chuqur anglashda ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos qonuniyatlari nimalardan iborat ekanligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda birinchi navbatda bola ruhiy rivojlanishi, madaniy taraqqiyot jarayoniga e'tibor qaratilsa

maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, har bir tug'ilgan bola tabiat va jamiyat tomonidan insoniyat taraqqiyoti doirasida individual rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lib, eng avvalo, inson bo'lishni o'rganadi va bu o'rganish jarayoni asosan madaniyat va ta'lim muhitida sodir bo'ladi. Har bir insonning hayot yo'li doimo rivojlanishning ikki yo'nalishi, 1) tabiiy (organizmning o'sishi); 2) ijtimoiy (shaxsning madaniyatga qo'shilishi) o'rtasidagi o'zaro ta'sir etadi. Bu bo'yicha ko'plab nazariyalar mavjud, jumladan, insoniyatning rivojlanishda ta'lim yetakchi rol o'ynasa, madaniy rivojlanish bizni tarbiya masalalariga bevosita olib keladi.

Shunday qilib, ta'lim o'qitish va tarbiya jarayonlarini o'z ichiga olib, madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyat ta'limning mazmuni, mohiyati va qadriyatini belgilaydi. Ta'lim madaniyatni saqlab qoladi, uning yutuqlarini asrlar osha yetkazadi, hamda insonning madaniy-ijtimoiy tajribani, jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimini o'zlashtirishi va rivojlantirish natijasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuni ham esdan chiqarmasligimiz kerak, ta'lim jarayonidagi rivojlanish shaxsiga xos bo'lgan, tabiat tomonidan in'om etilgan xususiyatlarga qaratilgan bo'ladi. Tarbiya esa shaxsda mavjud bo'lmagan, ammo jamiyat axloqida, insonlarning axloqiy me'yorlari va fazilatlarida mujassam bo'lgan, avloddan-avlodga madaniy va ma'naviy meros sifatida o'tib kelayotgan jihatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. "Madaniyatning chuqur fundamental asoslari mavjud bo'lib, o'zgaruvchan iqtisodiy tuzumlar va asrlar osha davom etib kelayotgan madaniy an'analar aynan shu asoslarga tayanadi" [3]. Darhaqiqat, ma'naviy madaniyat inson tajribasini to'plashning g'oyat murakkab tizimi hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixida asrlar davomida shakllanib kelgan.

Kechinmalar o'sib borayotgan insonning shakllanayotgan ichki dunyosining mohiyatini tashkil etadi. Bu orqali u dunyoni idrok etadi, tushunadi va unga munosabat bildiradi. Bola va olam o'rtasida o'ziga xos munosabatlar yuzaga keladi, ya'ni rivojlanishning ijtimoiy bolalarning ijobiy rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoitlarning asosiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning asosini bola o'zi yashayotgan muhitni va shu muhitda o'zini qanday his qilishini boshdan kechirishitashkil qiladi.

Agar bu muhit uning ijobiy his-tuyg'ularini uyg'otsa, u rivojlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, o'sish yosh davrida ruhiy va shaxsiy rivojlanishning zarur dinamikasini ta'minlaydi hamda shu davrning oxiriga kelib yangi sifatli o'ziga xos psixologik yangiliklar paydo bo'lishiga olib keladi. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati dunyoqarashining, tasavvurining shakllanishiga, motivatsion va intellektual sohalariga, ishonch-e'tiqodlarga, shakllanayotgan hissiy me'yorlarning xususiyatlariga, umumiy xulq-atvor, munosabatlar va faoliyatga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek axloqiy tuyg'ular madaniyatni tushunish uchun muhim hisoblanadi. Ba'zan madaniyat qacda tugab, axloq qacda boshlanishini aniqlash qiyin bo'lib qoladi, chunki ular o'rtasida shunchalik yaqin va chuqur o'zaro bog'liqlik mavjud. Madaniyat mazmunining katta qismi va uni o'zlashtirish maqsadlari shaxsning madaniy xos jarayonlarga qo'shilishini hamda axloq, adolat va halollik me'yorlarini anglashini ta'minlashdan iborat ekanligini asosli ravishda isbotlash mumkin [4] va bu allaqachon isbotlangan.

Tuyg'ularning asosini insonga oliy qadriyat sifatida o'zaro munosabat tashkil etadi. Insonning achinish, quvonish, yordam berish, hurmat, do'stlik, muhabbat, o'rtoqlik, uyat, vijdon, minnatdorlik tuyg'ularini his qilish qobiliyati normal insoniy munosabatlarning mohiyatini aks ettiradi. Bugungi

kunning shiddatli axborot jamiyatida oilada ham, maktabda ham bolalar va o'quvchilarda bunday tuyg'ularni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilayaptimi? Afsuski, zamonaviy o'smirlar nutqida vijdon, qadr-qimmat, burch, or-nomus, sezgirlik va shunga o'xshash ma'nodagi so'zlar kamdan-kam uchraydigan bo'lib qolayotgan yo'qmi?. Bu so'zlardagi tushunchalar ularga eskirgan va bizning ratsional hamda hisob-kitobli davrimizga mos kelmaydigan so'zlarday bo'lib tuyulib qolmayaptimi? [5] –degan savollar qator olimlarning o'ylantirayotgani so'zsiz. Shu sababli, o'quvchilar bilan bu tuyg'ular, ularning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati, shaxsning shakllanishi va shaxslararo munosabatlarni o'rnatishdagi roli haqida suhbatlashish yanada muhimroq bo'lib "inson hammadan ko'ra ko'proq boshqalarga hamdard bo'luvchi mavjudotdir" [6] ya'ni achinuvchi, boshqalar bilan birga his qiluvchi mavjudotdir, deb ta'kidlagan edi.

V.V. Davidov o'smirlar davrida shaxsning shakllanishi uchun asosiy va juda muhim psixologik nazariyani, ya'ni o'z faoliyat va xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish, boshqa odamlarning his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, qiziqishlarini tushunish, o'z xulq-atvorini, munosabatlarini shunga muvofiq qurish qobiliyati [7] sifatida ta'kidlagan. Bu yerda axloqiy his-tuyg'ular inson boshqa odamning emotsional holatini tushuna boshlaganda, unga hamdardlik va hamfikrlik qila boshlaganda, o'z xatti-harakatlari va munosabatlarida bu holatlarni hisobga olganida paydo bo'ladi.

Kattalar bilan o'zaro yaxshi munosabatda bo'lgan bola uchta yo'nalishga aqliy, shaxsiy va o'z-o'zini rivojlantirish kabi munosabatlarga kiradi. Bu bo'yicha A.K. Markova «Agar bu yo'nalishlar o'zaro ajratilmasa, bolaning eng yuqori rivojlanish darajasi deb faqat tashqi ta'sirlar ostida bajara oladigan va xohlaydigan narsalarni hisoblashga to'g'ri keladi» [8]–degan fikrlarni bildiradi. Bunda bolalarning o'z motivlari va maqsadlari mantig'i va o'z-o'zini rivojlantirish mantig'i bo'yicha emas, balki, uning yangi pozitsiyasi, o'z rivojlanishi uchun mas'uliyatini anglatadi. Ularning o'zaro bog'liqligini amalga oshirish va katta odamning umummadaniy hamda shaxsiy rivojlanish darajasi, bolani bilimlar olamiga, yaratish va ijod qilish dunyosiga, insoniy munosabatlar olamiga olib kirish qobiliyati bilan belgilanadi. Axloqiy muhit, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar xususiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Axborot texnologiyalari keng tarqalgan XXI asrda suhbatdosh bilan jonli muloqot ko'pincha ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot bilan almashtirilmoqda, bolalarning kattalar - ota-onalar va o'qituvchilar bilan bevosita muloqot doirasi toraymoqda va bu bolaning rivojlanishiga, ayniqsa, uning hissiy va axloqiy-ma'naviy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Oila - bolaning ruhiy rivojlanishi va psixologik salomatligini mustahkamlashning birinchi va asosiy ijtimoiy muhiti hamda manbaidir. Insonning hayot yo'li aynan shu yerdan boshlanadi. Ota-onalarning turmush tarzi va xulq-atvori shakllanayotgan shaxsning axloqiy pozitsiyasini ko'p jihatdan oldindan belgilab qo'yadi. V.P. Zinchenko o'z asarlarida «...rivojlanishning ijtimoiy-madaniy konteksti deb atagan narsa erta bolalikdan o'zlashtirilishni boshlaydigan ma'naviy tuzum emasmikan» [9]–degan masalalarni o'ylab ko'rish lozimligini bildiradi. Albatta, bolalikda paydo bo'lgan madaniy rivojlanish muammolari ko'pincha odatiy holga aylanadi yoki ontogeneznining keyingi bosqichlarida chuqurlashib boradi. Bola oilada oladigan eng qimmatli narsa - o'zini kerakli va sevimli deb his qilishidir. Bu unga xotirjamlik va atrof-muhit bilan munosabatlarda ishonch beradi, u ham dunyoga sevgi va ishonch bilan munosabatda bo'la boshlaydi. Bola uchun qulay bo'lgan muloqot vaziyatida tug'ilgan ishonch asta-sekin mustahkamlanib, shaxsiy boylikka aylanadi va shaxsning

psixologik madaniyati tuzilmasiga kiradi. «Bolaning hissiy ehtiyojlarini yetarli darajada qondirmaslik, ya'ni emotsional mahrum qilish, ruhiy va shaxsiy rivojlanishning buzilishida asosiy patologik ahamiyatga ega» [10].

Maktab ta'limi yoshlarga nafaqat o'quv mashg'ulotlari va turli xil tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni, zamonaviy moddiy ta'minot emas, balki o'qituvchi va o'quvchilarning madaniy-ma'naviy o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muhit orqali madaniyat va bilimlar olamiga kirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonining katta yoshdagi ishtirokchilarining o'zaro hurmat bilan munosabati maktab o'quvchilarini insoniy munosabatlarning psixologik madaniyatiga olib kiradi. Shuningdek ularning ichki madaniyatini rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi, chunki kattalarning xatti-harakatlari va munosabatlari shakllari ular tomonidan jamiyata ruxsat etilgan va ma'qullangan deb qabul qilinadi. Shuning uchun ular taqlid qilish uchun namuna bo'lishi mumkin.

Psixologik savodxonlikning mantiqan muhim jihati insonning sub'ektiv dunyosini tavsiflovchi faktlar va qonuniyatlardan sof ilmiy - elementar, ammo haqiqiy xabardor bo'lishni talab qiladi. Sababi, shaxsning bu kabi sub'ektiv dunyosi keng va murakkab hisoblanadi. U intellektual, axloqiy, irodaviy sifatlar, shuningdek, ehtiyojlar, motivlar, his-tuyg'ular, munosabatlar, bilimlar, ijodiy va boshqa qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu psixologik hodisalarning nafaqat rivojlanishi, balki ularning maktab o'quvchisining o'zi tomonidan anglanishi uning zarur axloqiy, ijtimoiy, ilmiy va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishi uchun asos bo'ladi. Ushbu bazasiz hech qanday madaniyat - san'at, adabiyot, fan, din, muloqot madaniyati, munosabatlar va xulq-atvor madaniyati va boshqalar - insonning shaxsiy mulkiga aylana olmaydi, bu esa uning shaxsiyatiga putur yetkazadi va uning psixologik salomatligini mustahkamlashga yordam berishi kerak.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarining kam kitob o'qishi bu muammoni yanada chuqurlashtiradi. Aynan mumtoz

adabiyot insonda fikrlar, his-tuyg'ular, kechinmalar, rejalar, shubhalarning boyligi va murakkabligini ko'rsatib, insonlarning xarakterlari, munosabatlari, faoliyat turlari va ongini ochib beradi. Bu esa inson hayotining maqsadi va qadrini anglashga, insoniy munosabatlar madaniyatini o'zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Ma'lum yoshga yetgan o'quvchi o'zini jismoniy jihatdan anglay boshlaydi. Fiziologik yetuklik belgilari ko'p jihatdan o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Ammo o'zini shaxs sifatida anglash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Agar o'quvchi o'zi haqida inson sifatida yetarli bilimga ega bo'lmasa, o'zi to'g'risidagi xulosalari ko'pincha noto'g'ri bo'lishi mumkin. Bu holat o'ziga va boshqalarga bo'lgan ijobiy munosabatni buzadi, umuman hayot tarzini buzg'unlikka uchratadi, bolalarni ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lmagan xulq-atvor shakllariga undaydi, eng muhim shaxsiy xususiyat - o'z taqdirini o'zi belgilash va odamlar bilan insonparvarlik munosabatlarini o'rnatishga psixologik tayyorlikni shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya mukammal shaxsni yaratishning mavhum g'oyalari bilan cheklanmasligi kerak, chunki bunday shaxs mavjud emas va bunday tarbiya zamonaviy maqsadlarni unutib, quruq so'z o'yinlariga aylanib qoladi. Bizning oldimizda eng yaqin davr kishilarini, kelgusi avlodni ular zimmasiga tushadigan tarixiy vazifaga to'la muvofiq holda tayyorlashdan iborat aniq maqsadlar turibdi. Shu sababli, o'ta aniqlik va haqqoniylik bizning davrimizda axloqiy tarbiyaning asosiga aylanmoqda. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya muammosini hal qilish yo'llarini nafaqat pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlar hamda amaliyotlarning yuqori darajadagi kasbiy fanlararo hamkorligi doirasida, balki turli fanlar va ijtimoiy ong shakllari - madaniyat, san'at, ommaviy axborot vositalari, huquq, axloq, dinning zamonaviy o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan ham izlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. Toshkent 6-noyabr, 2021-yil. President.uz
2. Выготский Л.С. Собр. соч. В 6 тт. Т. 4. – Москва, 1984..
3. Скотов Н.О. О культуре. – Санкт-Петербург, 2010.
4. Д. Мацумото. Психология и культура /под ред. – Москва, 2003.
5. Baeva, I.A., & Bordovskaia, N.V. (2015) The psychological safety of the educational environment and the psychological well-being of Russian secondary school pupils and teachers. *Psychology in Russia: State of the Art*, 8(1), 86–99. . doi: 11621/pir.2015.0108
6. Boulton, M., Undrewood, K. (1992) Bully/Victim problems among middle school children. *British Journal of Educational Psychology*, 62, 73–87. doi: 10.1111/j.2044-8279.1992.tb01000.x
7. Ilyushin, L.S., & Azbel, A.A. (2017) The modern Russian teacher: Studying awareness with the use of the semi-structured interview. *Psychology in Russia: State of the Art*, 10(1), 49–66. doi: 10.11621/pir.2017.0104
8. Маркова А.К. Психология труда учителя. – Москва, 1993.
9. Зинченко В.П. Психологические основы педагогики. – Москва, 2003.
10. Diener, E., Gohm, C., Suh, E., & Oishi, S. (2001) Similarity of the relations between marital status and subjective well-being across culture. *Journal of Cross-Cultural Psychology*, 4, 25–43.